

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

3

2025

ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096



**SHARQSHUNOSLIK**  
**ВОСТОКОВЕДЕНИЕ**  
**ORIENTAL STUDIES**

---

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

**№ 3, 2025**



## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

### TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Abdurahmonova M.</i> Urducha matn ustida ishlash jarayonida “talaba-o‘qituvchi” hamkorligi asosida qo‘llaniladigan interfaol usullar .....	3
<i>Jumaniyazov M.</i> “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e‘rāb” asarida fe‘llar va yuklamalarning tushum kelishigi bilan bog‘liq grammatik xususiyatlari .....	11
<i>Tadjixujraeva F.</i> Семантический анализ персидского соматизма جان <i>jān</i> «сердце» в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои.....	20
<i>Ivanova A.</i> Невербальные компоненты коммуникации в китайском языке: лингвокультурологический аспект.....	28
<i>Hou Yanli., Zhu Xingfei.</i> Exploring the Protection of Dungan Language through the Lens of the Language Attitudes of Dungan People .....	37
<i>Qodirova D.</i> Vyetnam tilidagi “cái” [ <i>kai</i> ] va “con” [ <i>kon</i> ] hisob so‘zlarining qiyosiy tahlili.....	46
<i>Davlatov Z.</i> Shart-istak mazmunini ifodalashning lakonik (ixcham) usulixususida .....	55

### MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Madraimov A., Eshmurodov B.</i> Amir Temur harbiy san‘atida ruhiy-psixologik ta‘sir vositalari .....	61
<i>Abdullayev U.</i> Amir Temur davlati xalqaro munosabatlari tarixini tadqiq etishning konseptual asoslari .....	69
<i>Nayimov O.</i> Ibn Khaldun and Power Dynamics: A Geopolitical Relevance of the Muqaddimah.....	79
<i>Elimov L.</i> G‘arb va Sharq mualliflari asarlarida Amir Temur davlatining vujudga kelishi haqida.....	85

### XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

<i>Alimov O.</i> Sharqiy Osiyodagi geoiqtisodiy megatrendlar: mintaqaviy integratsiyaning xalqaro-siyosiy va institutsional jihatlarini .....	90
<i>Kasimov M.</i> Pokiston-Hindiston-Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning xalqaro xavfsizlikka ta‘siri.....	98
<i>Bo‘ronov S.</i> Qo‘shitepa kanalining markaziy osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta‘siri ....	109
<i>Turdiyeva D.</i> Development of the Religious Education System in Malaysia and its significance today .....	114
<i>Abdulhaev A.</i> Влияние международных санкций на развитие китайско-иранского стратегического партнерства .....	123



## AMIR TEMUR DAVLATI XALQARO MUNOSABATLARI TARIXINI TADQIQ ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**ULUG‘BEK ABDULLAYEV**

*Dotsent, TDSHU*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixini o‘rganishning konseptual va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIV–XV asrlardagi geosiyosiy jarayonlar, mintaqaviy kuchlar muvozanati va mavjud xalqaro tizimning xususiyatlari A.Temur davlati tashqi siyosati shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatgani yoritiladi. Muallif xalqaro munosabatlar nazariyalari, sivilizatsiyalararo muloqot, geostrategik manfaatlar va siyosiy pragmatizm kabi kategoriyalar asosida A.Temur diplomatiyasini konseptual talqin qilgan. Maqolada A.Temurning diplomatik maktublari, elchilik faoliyati, savdo yo‘llarini tiklash siyosati va koalitsiyalar tuzish amaliyoti xalqaro munosabatlarning murakkab tizimida tahlil qilingan. Shu bilan birga, o‘rta asr manbalari va zamonaviy tarixshunoslik ma’lumotlari asosida A.Temur tashqi siyosatidagi strategik maqsad va vositalarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijalari A.Temur davlati xalqaro munosabatlari o‘rganishda yangi nazariy yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi va uni global siyosiy jarayonlar kontekstida baholash imkonini yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, xalqaro munosabatlar, konseptual asoslar, geosiyosat, diplomatiya, tarixshunoslik, XIV–XV asrlar, siyosiy tizim.

**Аннотация.** В статье анализируются концептуальные и методологические основы изучения внешней политики и международных отношений государства Амира Темура. Исследование раскрывает влияние геополитических процессов XIV–XV вв., регионального баланса сил и особенностей средневековой международной системы на формирование темуридской дипломатии. Автор предлагает новую концептуальную интерпретацию дипломатической деятельности Темура, опираясь на теории международных отношений, идеи цивилизационного диалога, геостратегические интересы и политический прагматизм. Особое внимание уделяется дипломатической переписке, институту посольств, восстановлению торговых коммуникаций и созданию международных коалиций. На основе средневековых источников и современной историографии раскрывается взаимосвязь стратегических целей и практических механизмов внешней политики Темура. Полученные результаты демонстрируют необходимость новых теоретических подходов в изучении международных отношений темуридской эпохи и



позволяют рассматривать деятельность Темура в контексте глобальных политических процессов.

**Ключевые слова:** Амир Темура, международные отношения, концептуальные основы, геополитика, дипломатия, историография, XIV–XV вв., политическая система.

**Abstract.** This article analyzes the conceptual and methodological foundations for studying the foreign policy and international relations of the Timurid state under Amir Timur. The research examines how the geopolitical dynamics of the 14th–15th centuries, the regional balance of power, and the characteristics of the medieval international system shaped the evolution of Timur's diplomatic strategy. Building on theories of international relations, civilizational dialogue, geostrategic interests, and political pragmatism, the author offers a renewed conceptual interpretation of Timur's diplomacy. The study focuses on his diplomatic correspondence, the institution of envoys, the restoration of commercial routes, and the formation of international coalitions. Drawing on medieval sources and contemporary historiography, it reveals the interdependence between Timur's strategic objectives and the mechanisms of their implementation. The findings emphasize the need for new theoretical approaches to studying Timurid international relations and situate Timur's activity within the broader context of global political processes.

**Keywords:** Amir Timur, international relations, conceptual foundations, geopolitics, diplomacy, historiography, 14th–15th centuries, political system.

Xorijiy davlatlar tashqi siyosati doimo ilmiy muammo sifatida tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Ushbu jarayonni voqeliklar tavsifi orqali o'rganish xalqaro munosabatlar tarixi fanining vazifasi hisoblansada, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar nazariyasi muayyan jahon tartibining vujudga kelishi va rivojlanishini tushuntiruvchi uslubiy konstruksiyalar shakllanishini tadqiq etadi. Siyosiy realizm, neorealizm, liberalizm, neoliberalizm konsepsiyalari xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasidagi asosiy uslubiy maktablar bo'lib, tahlil tizimini belgilab beradi. Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixini tadqiq etish savdo-iqtisodiy aloqalar, ilmiy va madaniy almashinuv, migratsiya jarayonlari tarixini ham o'z ichiga oladi.

Davlatning tashqi siyosati milliy xavfsizlikni ta'minlash, ichki siyosatda belgilangan maqsadlarga erishishga qulay tashqi shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Davlatning mustaqil va erkinligi qatorida uning hududiy yaxlitligi va xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish, xalqaro jarayonlarda ittifoqchilar va hamkorlarni izlash, jahon siyosiy maydonida o'z nufuzini mustahkamlash kabi vazifalar ham mavjud.



Tashqi siyosat ichki siyosatning davomi sifatida davlatning umumiy resurs bazasi bilan bog‘liq. Tashqi siyosat tashqi va ichki omillar ta‘sirida shakllanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi natijasida vujudga keladi. “Tashqi siyosat” atamasiga ta‘rif berishda ikki tendensiya mavjud. Birinchisi, “davlatning xalqaro munosabatlaridagi umumiy yo‘nalish”, ikkinchisi esa, “davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi” sifatida talqin qiladi. Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarini o‘rganish tarixiy-sivilizatsion, siyosiy va geosiyosiy tahlilni uyg‘unlashtirgan kompleks, ko‘p tarmoqli yondashuvni talab etadi. Amir Temur diplomatiyasi tarixiy hodisa emas, balki XIV-XV asrda shakllangan xalqaro munosabatlar sivilizatsion modelining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Amir Temur davlati xalqaro munosabatlari tarixini tadqiq etishning konseptual asoslari xalqaro munosabatlar nazariyasining siyosiy realizm va liberalizm kabi klassik yo‘nalishlari hamda sivilizatsion yondashuvlarga tayanadi. Bunday nazariy sintez Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini ochib berish, jahon siyosiy tizimlari evolyutsiyasidagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

Siyosiy realizm paradigmasi<sup>1</sup> Amir Temur tashqi siyosatini geosiyosiy raqobat sharoitida kuch va ta‘sirni saqlab turish vositasi sifatida anglash imkonini beradi. Bunda Amir Temurning Yevroosiyo makonida barqaror kuchlar muvozanatini shakllantirishga intilishi muhim o‘rin tutadi.

Liberal yondashuv<sup>2</sup> Amir Temur tashqi siyosatini xalqaro aloqalarni institutsionallashtirish, savdo-sotiq va diplomatiyada o‘zaro bog‘liqlik tizimini shakllantirishga qaratilgan jarayon sifatida talqin etadi. Elchilik missiyalari, Yevropa monarxialari bilan tuzilgan kelishuvlar va savdo yo‘llarini nazoratga olish xalqaro hamkorlik va diplomatiyaning ilk shakllarini o‘zida aks ettiradi.

Shuningdek, konstruktivistik metodologiya<sup>3</sup> Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatini xalqaro tartibni yaratish shakli sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Bunda diplomatiya davlat manfaatlarini amalga oshirish vositasi, tashqi madaniy qiyofasi va siyosiy legitimligini shakllantirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Sivilizatsion yondashuv<sup>4</sup> esa Amir Temur tashqi siyosatini Sharq va G‘arb madaniyatlarini sintezi sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvlar Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixini o‘rganishning konseptual asosini shakllantiradi. Amir Temurni faqat harbiy sarkarda yoki davlat

---

<sup>1</sup> Morgentau G. Politicheskiye otnosheniya mejdu natsiyami: borba za vlast i mir / Per. s angl. –M.: Logos, 2005. - 528 s.

<sup>2</sup> Keoxeyn R. Posle gegemonii: sotrudnichestvo i raznoglasiya v mirovoy politike / Per. s angl. –M.: Aspekt Press, 2002. — 384 s.

<sup>3</sup> Vendt A. Sotsialnaya teoriya mejdunarodnoy politiki / Per. s angl. –M.: ROSSPEN, 2017. – 528 s.

<sup>4</sup> Toynbi A. Postijeniye istorii / Per. s angl. –M.: Progress, 1991. – 736 s.



arbobi sifatida emas, balki xavfsizlik, barqarorlik va madaniy hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan tashqi siyosat konsepsiyasi muallifi sifatida namoyon etadi.

Amir Temur konstruktiv xalqaro hamkorlikni o'rnatishga intilgani uning tashqi siyosatining o'ziga xos jihatlari sifatida baholanadi. Tashqi siyosat xalqaro munosabatlar kategoriyasi bo'lib, maqsad va imkoniyatlar o'rtasidagi pragmatik muvozanatni ta'minlashga bog'liq. Har bir davlat xalqaro maydonda o'z tashqi siyosiy kursini belgilaydi va uni amalga oshirish orqali o'zining xalqaro maqomi, manfaatlari va xavfsizligini ta'minlash strategiyasini shakllantiradi<sup>1</sup>. Amir Temur tashqi siyosati tahlili davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari mexanizmlari va xavfsizlikni ta'minlash tamoyillarini izohlovchi konsepsiyalarga murojaat etishni talab qiladi. Bunda L.Gumplovich<sup>2</sup> konsepsiyasi alohida ahamiyatga molik bo'lib, u tashqi siyosatni ichki siyosiy tuzilmaning negizi va davlatchilik evolyutsiyasining omili sifatida talqin qiladi.

K.Klauzevis<sup>3</sup> nazariyasiga ko'ra tashqi siyosat ichki siyosatning davomi bo'lib, tashqi muhit davlatning ichki siyosatini belgilaydi<sup>4</sup>. Uning nazariy qarashlarida tashqi siyosat jamiyatning ichki rivojlanishi, hokimiyat tizimini va uning institutsional mexanizmlarini shakllantiradi<sup>5</sup>. Amir Temur davlati xalqaro munosabatlarini ushbu model asosida tahlili uning tashqi siyosat strategiyasidagi uchta asosiy yo'nalishni ko'rsatadi:

1. Amir Temur tashqi siyosati davlatning harbiy-siyosiy salohiyatini mustahkamlash bilan uzviy bog'liq. "Ichki siyosat harbiy qudratni oshirishga qaratilmog'i lozim"<sup>6</sup> tamoyiliga ko'ra, Amir Temur davlat institutlarini jamiyatning doimiy jangovor tayyorgarligi va mobilizatsion salohiyatini ta'minlaydigan tarzda tashkil etgan. Harbiy kuch uning nazariy modelidagi asosiy maqsad emas, balki xavfsizlik, hududiy yaxlitlik va hokimiyat legitimligini kafolatlovchi vosita sifatida qaralgan.

2. Chegaraviy hamkorlik nuqtayi nazaridan qaralganda, Amir Temur qo'shni davlatlarga nisbatan tashqi siyosati muvozanat, ekspansiya va hamkorlik o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Chegara hududlari harbiy tahdid manbai emas, balki iqtisodiy va madaniy almashinuv makoni sifatida ko'rilgan. Amir Temur

---

<sup>1</sup> Kosolapov N.A. Vneshnyaya politika i vneshnepoliticheskiy protsess subyektov mejdunarodnykh otnosheniy // *Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye otnosheniya*. 1999, №3. S. 64-73

<sup>2</sup> Baranov N.A. Teoriya politiki // *Mejdunarodnye otnosheniya i geopolitika*. <http://iead.virmk.ru/b/BARANOV POLITICA/21.htm>.

<sup>3</sup> Klauzevis K. fon. O voynе / Per. s nem. –M.: Gosudarstvennoye izdatelstvo, 1958. -732 s.

<sup>4</sup> Gumplovich L. Osnovy sotsiologii / Per. s nem. –M.: Izd-vo "Yurayt", 2020. -410 s.

<sup>5</sup> Morgentau G. Politicheskiye otnosheniya mejdu natsiyami: borba za vlast i mir / Per. s angl. –M.: Logos, 2005. -528 s.

<sup>6</sup> Gumplovich L. Osnovy sotsiologii / Per. s nem. — M.: Izd-vo "Yurayt", 2020. - 410 s.



tashqi siyosati bitimlar, vassallik munosabatlari va harbiy-siyosiy ittifoqlar orqali chegara barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

3. Amir Temurning tashqi siyosati arxitekturasida raqib davlatlar harbiy jihatdan kuchayishining oldini olish orqali kuchlar muvozanatini saqlash zarurati muhim o'rin egallagan. Amir Temurning mintaqaviy siyosati ushbu tamoyilni to'liq ifoda etgan. Uning diplomatik va harbiy harakatlari Yevroosiyo mintaqasida tarkibiy muvozanatni shakllantirish, muayyan bir davlat jiddiy kuchayishiga yo'l qo'yimaslikka qaratilgan edi. Amir Temurning tashqi siyosat strategiyasi xalqaro tizimdagi kuchlar taqsimotiga ta'sir ko'rsatish, global konfiguratsiyada bir qutbli kuch markazlari vujudga kelishini oldini olib, geosiyosiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan.

Amir Temur xalqaro munosabatlari tahlili ichki va tashqi siyosatning o'zaro determinatsiyasiga tayanadi. Amir Temur tashqi siyosatini barqaror xalqaro tartibotni shakllantirish mexanizm sifatida ko'rsatadi. Unda harbiy qudrat, diplomatiya va ma'muriy markazlashuv bir-birini to'ldirib, strategik barqarorlik va sivilizatsion yaxlitlikni ta'minlagan. Amir Temurning diplomatiyasi harbiy-siyosiy hukmronlik fenomeni sifatida emas, balki geosiyosiy muvozanat, kuch resurslarini ratsional boshqarish va xalqaro barqarorlik konsepsiyasiga mos tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Temuriylar davri kontekstida tashqi siyosiy faoliyat davlatchilikning tizim yaratuvchi asosiga aylangan deb qayd etish mumkin. Ekspansiya siyosati, diplomatik missiyalar, chegaraviy munosabatlarni tartibga solish va Yevroosiyoda kuchlar muvozanatini ta'minlash kabilar nafaqat davlatning xalqaro nufuzini mustahkamlagan, balki ichki markazlashuvni, boshqaruv tizimi institutsionallashuvini va g'oyaviy birlikni rag'batlantirgan. Shu bois Amir Temur diplomatiyasi davlatning ichki tuzilmasini barpo etish va uni rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosiy strategiya sifatida shakllangan.

Shuningdek, Amir Temur davlati tashqi siyosati davlat boshqaruvining alohida komponenti emas, balki siyosiy va institutsional evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv tashqi siyosatni harbiy-siyosiy talqin doirasidan chiqarib, ijtimoiy o'zaro ta'sir shakli va xalqaro tartibotni shakllantirish mexanizmi sifatida kompleks anglash imkonini beradi. Diplomatiik faoliyat sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni tashkil etish, kuchlar muvozanatini tartibga solish va Yevroosiyo siyosiy makoni barqarorligini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Amir Temur tashqi siyosatini o'rganish realistik, institutsional va sivilizatsion yondashuvlar integratsiyasiga asoslanadi hamda harbiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy omillar tizimi sifatida tahlil qilish uchun fanlararo ilmiy asos yaratadi. Mazkur yondashuv doirasida tashqi siyosat davlatning strategik barqarorligini ta'minlash, mintaqaviy



muvozanatni saqlash va uning xalqaro maqomini legitimlashtirishga qaratilgan ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin etiladi.

Tashqi siyosiy jarayon davlatning xalqaro munosabatlar subyektlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq harakatlar va qarorlar tizimini anglatadi. Ushbu jarayonni Amir Temur davlati nigohida tahlil qilish faqat diplomatik faoliyatni o‘rganish bilan cheklanmaydi. U tashqi siyosatning yo‘nalishlari va mazmunini belgilab bergan harbiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy omillar majmuasini ham qamrab oladi<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro munosabatlar tarixi tahlilida “tashqi siyosiy xulq-atvor” va “tashqi siyosiy yo‘nalish” tushunchalarini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. “Tashqi siyosiy yo‘nalish” kategoriyasi holatni strategik manfaatlar va uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlar asosida qurilgan yaxlit harakatlar konsepsiyasi mavjudligini nazarda tutadi. Bunday yondashuv Amir Temurning xalqaro faoliyatini siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, harbiy muvozanatni saqlash va sivilizatsion integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan jarayon sifatida ko‘radi. Amir Temur tashqi siyosati tadqiqi geosiyosiy, tizimli va jarayonli yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi. Quyidagi metodologiya Amir Temur tashqi siyosatining mohiyatini kompleks tadqiq etishga xizmat qiladi:

- Geosiyosiy yondashuv tashqi siyosiy qarorlar davlatning joylashuviga, kommunikatsiya yo‘llari ustidan nazoratga, resurslar va chegara hududlaridagi manfaatlarga bog‘liqligini, diplomatiya iqtisodiy imkoniyatlarga tayanuvchi mexanizm ekanligini ko‘rsatadi.

- Tizimli yondashuv Amir Temur davlatini xalqaro tizimning ajralmas qismi sifatida tahlil qilishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv Amir Temur tashqi siyosatining Yevroosiyo xalqaro munosabatlaridagi o‘rnini ochib beradi.

- Jarayonli yondashuv tashqi siyosiy faoliyatning rejali va tizimli siyosatga o‘tish bosqichlarini tahlil qilishga qaratilgan. Unda kuchlar muvozanati, diplomatiya va iqtisodiy ta‘sir vositalari tashqi siyosatning strategik mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Ushbu yondashuvlar Amir Temur tashqi siyosatini maqsadli, yaxlit siyosiy tizim sifatida tahlil etadi. Strategik rejalashtirish, institutsional muvofiqlashtirish va mafkuraviy legitimlashuv o‘zaro bog‘langan elementlar sifatida namoyon bo‘ladi. Amir Temur tashqi siyosatini metodologik anglash uning ichki va tashqi siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni e‘tirof etishga asoslanadi. Tashqi siyosat nazariyalari doirasidagi ilmiy an‘analalar Amir Temurning xalqaro faoliyatini tahlil qilish uchun metodologik asos yaratadi. Mazkur yondashuvlar Amir Temur tashqi siyosatini interpretatsion modelda tahlil qilish uchun nazariy platforma yaratadi.

---

<sup>1</sup> Kosolapov N.A. Vneshnyaya politika i vneshnepoliticheskiy protsess subyektov mejdunarodnyx otnosheniy // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnyye otnosheniya. 1999. №3. S. 64-73



Quyidagi yoʻnalishlar Amir Temur tashqi siyosatini koʻp qirrali, tizimli va sivilizatsion mohiyatga ega davlat siyosati sifatida tahlil qiladi:

Birinchi yoʻnalish siyosiy realizm maktabi boʻlib, tashqi siyosatni davlat qudratini mustahkamlashi va xavfsizlikni taʼminlashini koʻrsatadi. Realizm paradigmasi Amir Temurning tashqi siyosat doktrinasini kuchlar muvozanatiga asoslangan strategiya deb baholaydi. Urush va diplomatiya milliy manfaatlarni ilgari surish, barqarorlikni taʼminlash vositalari sifatida baholanai. Siyosiy realizm Amir Temur tashqi siyosati mohiyatini xalqaro barqarorlikni taʼminlovchi muvozanat modeli sifatida ochib beradi.

Ikkinchi yoʻnalish qiyosiy-nazariy yondashuv boʻlib, ichki va tashqi siyosat oʻrtasidagi bogʻliqlik mexanizmlarini ochib beradi. Amir Temur diplomatiyasi sivilizatsion universalizm va amaliy pragmatizm uygʻunligi bilan ajralib turganini koʻrsatadi. Bunda madaniy taʼsir tashqi siyosat resursi sifatida qoʻllanilgan. Qiyosiy tahlil asosida qayd etish joizki, Amir Temur boshqaruvida ichki siyosiy islohotlar xalqaro strategiyaning mantiqiy davomi sifatida namoyon boʻlgan.

Uchinchi yoʻnalish empirik-tahliliy yondashuv boʻlib, empirik maʼlumot bazasini tuzish va tashqi siyosiy xulq-atvor qonuniyatlarini aniqlash Amir Temur xalqaro munosabatlarini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Empirik yondashuv Amir Temur siyosatiga oid keyingi nazariy tahlillar uchun miqdoriy va tarixiy asosni taʼminlaydi.

Toʻrtinchi yoʻnalish neoliberal va postrealistik maktab boʻlib, Amir Temur tashqi siyosatidagi dastlabki neoliberal tendensiyalarni aks ettiradi. Misol tariqasida savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni oʻrnatishga intilish, olimlar, meʼmorlar va diplomatlarni qoʻllab-quvvatlash orqali “yumshoq kuch” resurslaridan foydalanish, Yevroosiyoda integratsion maydon yaratishga yoʻnaltirilgan tashqi siyosat yuritishini qayd etish joiz.

G.Morgentau tashqi siyosatni kuch nuqtayi nazaridan talqin etib, milliy manfaatlarni xalqaro tamoyil va meʼyorlardan ustun qoʻyadi. Uning nuqtayi nazaricha, tashqi siyosiy maqsadlar milliy manfaatlar oʻzanida belgilanadi va kuch orqali taʼminlanadi<sup>1</sup>. Kuch maqsadlarga erishish vositasi sifatida koʻriladi<sup>2</sup>. Siyosiy realizm nuqtayi nazaridan, davlatlar oʻrtasidagi kuch nisbati tashqi siyosat mohiyatini belgilaydi. Davlatning harbiy salohiyati, uning kuchlar tizimidagi oʻrnini aniqlovchi mezondir. Shu bois tashqi siyosat davlat qudratini oshirish, kuchlar muvozanatini saqlash, tashqi tahdidlarga qarshi turish salohiyati bilan belgilanadi.

<sup>1</sup> Morgentau G. Mejdunarodnaya politika / Antologiya mirovoy politicheskoy mysli: v 5 t. –M.: Mysl, 1997. T.2. S. 501-507

<sup>2</sup> Sushenkov A.A. Ocherki politiki SSHA v regionalnykh konfliktax 2000-x godov/ A.A.Sushenkov; otv. red. A.D.Bogaturov. –M.: Izdatelstvo MGIMO-Universiteta, 2013. - 249 s.



Kennet Uolts nuqtayi nazaricha, xalqaro tizimning tuzilishini ikki usulda tahlil qilish mumkin<sup>1</sup>. Birinchisi, kuchlar muvozanati nazariyasi doirasida asosiy vazifa raqib davlat haddan tashqari kuchayishining oldini olish orqali barqarorlikni ta'minlash. Ikkinchisi, xalqaro tizim davlatlarning xalqaro faoliyatini cheklab qo'yishi yoki yangi imkoniyatlar yaratishi mumkinligini anglatadi. Tashqi siyosiy maqsadlar va natijalar o'rtasidagi farqlar xalqaro tizimning ichki tuzilishi va global muhitning xususiyatlari bilan belgilanadi.

Liberal yondashuv nuqtayi nazaridan, tashqi siyosat davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnologik, harbiy, demografik va madaniy salohiyati asosida shakllanadi. Mazkur omillar majmuasi davlatning jahon siyosiy tizimidagi qudrati, ustuvor yo'nalishlari hamda xalqaro maydondagi xatti-harakatini belgilaydi. Davlatning geosiyosiy joylashuvi xalqaro munosabatlardagi hamkorlarini tanlashda, raqiblar bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega molik. Davlatning tashqi siyosiy salohiyati milliy manfaatlarni tashqi siyosiy maqsadlarga aylantirish jarayonini ta'minlaydi. Liberal paradigma tashqi siyosatni kuch va raqobat emas, balki hamkorlik, o'zaro manfaatni e'tirof etuvchi ijtimoiy-siyosiy mexanizm sifatida izohlaydi. Amir Temur tashqi siyosatini faqat harbiy kuch emas, balki sivilizatsion hamkorlik va madaniy ta'sir orqali xalqaro barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tizim sifatida ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatni tadqiq etish metodologiyasi turli fanlararo integratsiyani talab etadi. Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat iqtisod, huquq, menejment va ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq. I.D.Kovalchenko ta'kidlashicha, tadqiqot usullari fanning dinamik komponenti bo'lib, uni oldinga harakatga keltiradi. Ular ilmiy faoliyatda doimiy ahamiyat kasb etadi<sup>3</sup>. Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatni tadqiq etishda metodologik yondashuvlar doimo rivojlanib boradigan tizim bo'lib, yangi nazariy g'oyalar va usullar ilmiy izlanish samaradorligini oshiradi. Ennio Di Nolfo ta'kidlashicha, tarixiy uslub xorijiy davlatlar tarixi va siyosiy jarayonlar rivojlanishini ochib berishda asosiy ilmiy vosita hisoblanadi<sup>4</sup>. Siyosiy realizm maktabi tashqi siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida aynan tarixiy metodni nazariy va amaliy asos sifatida qo'llaydi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, har bir davlatning tashqi siyosiy xatti-harakatini anglash uchun uning tarixiy tajribasi va diplomatik an'analarini tahlil qilish zarur.

Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi tadqiqotlarida uzoq vaqt davomida obyektiv omillar metodi ustuvor bo'lgan. Bunday yondashuv muayyan darajada davlatlarning milliy manfaatlarini, shuningdek, asrlar davomida barqaror

<sup>1</sup> Waltz K. *Theory of International Politics* / Long Grove, Ill.: Waveland Press, 2010. - 251 p.

<sup>2</sup> Kondratov A.I. *Napravleniye vneshnepoliticheskoy deyatelnosti gosudarstva* // *Nauchno-analiticheskiy jurnal Obozrevatel - Observer*. 2010. №1.

<sup>3</sup> Kovalchenko I.D. *Metody istoricheskogo issledovaniya*. 2-ye izd., dop. –M.: "Nauka", 2003. S. 14.

<sup>4</sup> Nolfo Di E. *Istoriya mejdunarodnyh otnosheniy: 1918-1999*. M.: Logos, 2003. S. 9.



bo'lib kelgan ichki siyosiy tizimlarini aniqlash imkonini bergan. Biroq mazkur metod o'zgaruvchan dunyo sharoitida o'z imkoniyatlarini to'liq ishlatib bo'ldi. Bugungi global siyosiy muhit xalqaro munosabatlar tarixi va davlat tashqi siyosatini o'rganishda yangi, kompleks va ko'pqirrali ilmiy usullarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa tarixiy tahlilni realizm, konstruktivizm kabi siyosiy nazariyalar va sivilizatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish orqali amalga oshirishni talab qiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda obyektiv voqeliklarni xronologik tahlil qilish usuli keng qo'llaniladi. U tarixiy hodisalarni aniq vaqt izchilligida, ya'ni harakat va statik holatda tahlil etadi. Bu siyosiy jarayonlar evolyutsiyasini chuqur o'rganadi hamda amaliy xulosalar chiqaradi. Xronologik-muammoli tahlil davlatlarning ichki va tashqi siyosatidagi umumiy qonuniyatlarni hamda ulardagi o'zgarish xususiyatlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. U ilmiy muammoni muayyan tarixiy davrlar, inqirozli vaziyatlar va siyosiy jarayonlar kesimida tahlil qiladi.

Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda sinxron va diaxron tahlil usullari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlil turli hududlardagi tarixiy hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ta'sir mexanizmlarini aniqlaydi. Bunday uslub Amir Temurning tashqi siyosiy faoliyatini XIV asr global siyosiy kontekstida Usmoniylar imperiyasi, Misr mamluklar saltanati, Oltin O'rda va Yevropa saltanatlari bilan bir vaqtda kechgan tarixiy jarayonlar tizimida tahlil qiladi.

Tarixiy-qiyosiy tahlil metodologiyasi xalqaro munosabatlar va Amir Temur davlati tashqi siyosatini o'rganishdagi asosiy yo'nalishlar hamda ilmiy tahlil vositalaridan biri hisoblanadi. Bu usul siyosiy hodisalarni, Amir Temurning tashqi siyosat haqidagi qarashlarini, shuningdek, siyosiy jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish orqali xalqaro faoliyatdagi umumiy nuqtalarni aniqlash hamda amaliy muammolarni hal etish yo'llarini belgilash imkonini beradi. S.I.Simanovskiy ta'kidlaganidek, qiyosiy tahlil tadqiqotning metodologik strategiyasidir. U tadqiqot obyektining ilmiy modeli, konseptual asosi, ilgari surilayotgan gipotezalar, empirik materialni o'lchash va tahlil qilish vositalari hamda olinadigan natijalar, ya'ni sintez qilingan nazariyalar, modellar va tasniflar bilan bog'liq<sup>1</sup>. Amir Temur davlati tashqi siyosatini o'rganishdagi tarixiy-qiyosiy tahlil usuli Yevropa va Yaqin Sharq kabi ikki yirik geosiyosiy makonni qamrab oladi. Bu usul ularning siyosiy voqeliklarini qiyoslash, o'zaro ta'sir nuqtalarini va farqli jihatlarini aniqlash orqali XIV-XV asr xalqaro munosabatlari manzarasini anglashga xizmat qiladi. Tarixiy-qiyosiy tahlil Amir Temur davlatining tashqi siyosat modeli va Yaqin Sharq geosiyosiy tizimi o'rtasidagi umumiy qonuniyatlar, o'zaro ta'sir mexanizmlari va siyosiy o'zgarishlarni anglashga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Simanovskiy S.I. Sravnitelnyy analiz kak metod issledovaniya v politicheskoy nauke // VesS BDPU. 2002. № 4 S. 165-171.



Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlar tizimini o'rganishning metodologik asoslari siyosiy realizm, liberal-institutsional, konstruktivistik va sivilizatsion paradigmalarning kompleks sinteziga tayanadi. Bu yondashuv Amir Temurning xalqaro faoliyatini ko'p qirrali, ko'p bosqichli siyosiy va sivilizatsion hodisa sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Ushbu tizimda tashqi siyosat strategik barqarorlikni ta'minlash, madaniy muloqotni mustahkamlash va sivilizatsion integratsiyani amalga oshirish mexanizmi sifatida namoyon bo'lgan. Shu tariqa, tadqiqot an'anaviy tasviriy tahlil doirasidan chiqib, Amir Temur diplomatiyasini xalqaro munosabatlar tarixi doirasidagi o'ziga xos, nazariy va metodologik jihatdan asoslangan ilmiy fenomen sifatida o'rganishni ilgari suradi.

Amir Temur davlatining geosiyosiy tahlilida uning tashqi siyosati xavfsizlik, kuchlar muvozanati, barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan va institutsionallashtirilgan harakatlar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Uning metodologik asosi tashqi siyosiy faoliyatni protsessual tahlil qilish, ya'ni davlatning o'z tashabbuslari va faoliyatidagi tasodifiy hamda maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni farqlash, ichki va tashqi siyosat o'rtasidagi muvofiqlikni siyosiy moslashuv va strategik rivojlanishning mexanizmi sifatida o'rganishdan iborat. Bunday yondashuv Amir Temur tashqi siyosatini xalqaro jarayonlarni boshqarishning dastlabki strategik modeli sifatida talqin etish imkonini beradi.

Tashqi siyosatni tadqiq etishdagi realistik, qiyosiy-nazariy, empirik-analitik va neoliberal yo'nalishlar integratsiyasi Amir Temur davlati xalqaro munosabatlarini yaxlit va ko'p qirrali tarzda o'rganish imkonini beradi. Ushbu metodologik sintezda siyosiy realizm kuch tuzilmasi va manfaatlar muvozanati shakllanish qonuniyatlarini ochib bersa, qiyosiy-nazariy yondashuv ichki va tashqi siyosat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yagona davlat strategiyasining tamoyili sifatida namoyon etadi. Empirik-analitik uslub Amir Temur diplomatiyasi mexanizmlarini aniqlash uchun tarixiy asos yaratadi. Mazkur nazariy yo'nalishlar tashqi siyosat tarixini o'rganishda asosiy metodologik paradigmani shakllantiradi. Uning doirasida Amir Temur tashqi siyosati faqat harbiy yoki siyosiy ta'sir vositasi sifatida emas, balki strategik muvozanat, o'zaro manfaatdorlik, madaniy muloqot va sivilizatsion uyg'unlik tamoyillariga asoslangan xalqaro tartibni tashkil etuvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.